

**O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANGANLIK DARAJASINI
BAHOLASHDAGI YANGICHA YONDASHUVLAR.**

Namangan viloyati Namangan shahar
Pedagoglarni yangi
metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Tasviriy san'at va chizmachilik fan o'qituvchisi
Azimov Mirzo Maxmud Mirzabaxrom o'g'li

Annotatsiya: Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. Xolislik (obyektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'i nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi. Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida — bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadi-ki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutlaqlashtirishga yo'l qo'ymaydi. **Kalit so'zlar:** Tashxis, nazorat qilish, baholash, nazorat va hisobga olish, tekshirish, baho, xolislik, tizimlilik, ko'rgazmalilik, joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat, og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy tekshirish, uy vazifalarini tekshirish, reyting shkalalash, test.

Аннотация: Диагностика образованности студентов по педагогике и разработана система принципов управления. Важнейшими из них являются беспристрастность (объективность), систематичность (систематичность), доказательность (открытость). Беспристрастность (объективность) состоит из диагностических тестов (заданий, вопросов), научной основы содержания диагностического процесса, доброжелательного отношения педагога ко всем

обучающимся, четко определенных критериев оценки знаний и умений. На практике беспристрастность диагностики означает, что выставленные оценки всегда стабильны, независимо от методов и средств контроля, а также преподавателя, проводившего диагностику. Требование принципа системности состоит в том, что диагностический контроль должен осуществляться на всех этапах образовательного процесса, от первоначального восприятия знаний до их практического применения. Системность означает, что все обучающиеся участвуют в регулярной диагностике с первого дня пребывания в образовательном учреждении и до его окончания. Учебный контроль должен осуществляться часто, чтобы надежно проверять все стороны знаний и умений учащегося. Принцип системности требует целостного подхода к диагностике, при котором различные формы, методы и средства контроля, осмотра и оценки используются в органической взаимосвязи и единстве, служащие одной цели. Такой подход не позволяет абсолютизировать некоторые методы и средства диагностики.

Ключевые слова: Диагностика, контроль, оценка, контроль и учет, проверка, оценка, беспристрастность, систематичность, демонстрация, текущий контроль, промежуточный контроль, итоговый контроль, устный экзамен, письменный экзамен, практический экзамен, домашние проверочные задания, шкала оценок, тест.

Abstract: Diagnosing the education of students in pedagogy and a system of control measures has been developed. The most important of them are impartiality (objectivity), systematicity (systematicity), demonstrability (openness). Impartiality (objectivity) consists of diagnostic tests (assignments, questions), the scientific basis of the content of the diagnostic process, the friendly attitude of the pedagogue to all students, and clearly defined criteria for evaluating knowledge and skills. In practice, the impartiality of the diagnosis means that the given grades are always consistent, regardless of the control methods and tools, and the teacher who conducted the diagnosis. The requirement of the principle of systematicity is that diagnostic control should be carried out at all stages of the educational process, from the initial perception of knowledge to its practical application. Systematic means that all learners are involved in regular diagnosis from the first day of their stay in the educational institution until the end. Educational supervision should be carried out frequently in order to reliably check all aspects of the learner's knowledge and mastery. The principle of systematicity requires a holistic approach to diagnosis, in which various forms, methods, and tools of control, inspection, and assessment are used in an organic relationship and unity, serving one purpose. Such an approach does not allow the absolutization of certain methods and tools of diagnosis.

Key words: Diagnosis, control, assessment, control and accounting, inspection, assessment, impartiality, systematic, demonstration, current control, interim control, final control, oral examination, written examination, practical examination, house checking tasks, rating scale, test.

KIRISH

Ta'lim tizimida, bilim, ko'nikma va malakalar Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarida belgilab qo'yilgan.

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini baholashdagi yangicha yondashuvlar modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning bilimdom, malakali kadrlarni birinchi navbatda, natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab o'quvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting — insonning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini baholashdagi yangicha yondashuvlar orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Bilim ko'nikma va kompetensiyalarini bajarilishida nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi

bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini baholashdagi yangicha yondashuvlar o'quvchi ya'ni boladagi ruhiy salomatligini ham yaxshilaydi. Ta'lim o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, fikrlash usullari tizimi bo'lib bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi hisoblanadi. Ko'nikma esa – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallashga qaratiladi. O'quvchilarda malaka va maqsad tushuntirganimizda avtomatlashgan, biror bir uchul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi va o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi o'quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror qabul qilish noxush oqibatlaiga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o'qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o'rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo'lavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta'minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko'p omillik tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta'sir etadi, xolos. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va yuzdan ortiq o'rta maxsus o'quv maskanlari o'qituvchilari ko'pincha o'quvchi yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'libor qaratadilar, ammo ulaming tarbiyalanganlik darajalarini (keng ma'noda) va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta'lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtai nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga urinishmaydi. O'quvchilar va talabalarning aqliy rivojlanishlari ko'p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, zarur bo'lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davming muhim talablaridan biridir. Ijtimoiy pedagogik diagnostika - pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish haqidagi axborotlarning majmuyi. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor «bilim» va «tarbiyalanganlik» atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur. Jahon pedagogikasida «bilim va tarbiya» atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning

mohiyati, ko`nikmasi xususida turli nazariyalar mavjud. Bilim va tarbiyani kattalar (o`qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta`sir ko`rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko`p tarqalgan tendensiyadir. Bu o`rinda kattalar to`g`ri deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta`sir ko`rsatish ko`zda tutiladi, albatta. O`quvchilar bilim, ko`nikma, malakasini baholashdagi yangicha yondashuvlar tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama xususiyatga ega bo`lib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos.

Ta`lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o`zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim. Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o`z qobiliyati va iste`dodini to`la ro`yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo`shilishga yordam berishdan iboratdir. Shu jihatdan ta`lim-tarbiya jarayonini diagnostika qilishga zarurat oshmoqda. Yoshlarning kamolot darajasini diagnostika qilishda va xulqi dagi nuqsonlarni korreksiyalashda intellektual va tarbiyalanganlik darajasi orasidagi aloqadorlikni aniqlash, xalq pedagogikasi tajribalarini zamon talablari bilan uyg`unlashtirish, ta`lim-tarbiya bilim ko`nikmalarni tizimini qulaylashtirish, komil inson fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan milliy qadriyatlar va ilg`or metodikalar Pedagogik diagnostika - pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini tahlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni. Uzluksiz ta`lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini takomillashtirishda muhim yo`nalish sifatida qaralmoqda. Shuningdek, ta`lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik va diagnostika tashxislashning maqsadi o`quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog`liq holda o`z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda o`quvchilar bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlanganlik diagnostika darajasini baholashdagi yangicha yondashuvlar To`g`ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o`qituvchi o`quvchilarning o`zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o`z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta`sir etadi. O`quvchilarning o`zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e`tiborni qaratish lozim:

- 1) o`quv dasturi asosida mavzu va bo`limni o`rganishda o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- 2) har bir yakunlangan mavzu bo`yicha o`quvchilarning faoliyati to`g`risida to`liq xulosa chiqarish;

3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish. Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.T.Jurayev "Fan va ta'lim" Buxoro-2022 "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi"
2. Muhaz.org Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim ko'nikma va malakalini rivojlantirish 2023 y
3. www.youtube.com/@mahoratakademiyasi 2022y
4. Ilmiybaza.uz 2024
5. Azkurs.org 2023
6. staff.tiame.uz
7. Saidova, G. (2023). "Arts Education: Challenges and Solutions." Education in Uzbekistan, No. 1.
8. Kadyrov, R. (2020). "Art and Education: A Social Responsibility." Social Sciences, No. 6.
9. Ismailov, E. (2021). "Creative approaches in modern education". Education and Development, No. 3.
10. Jumaniyazov, M. (2022). "Education and the Arts: Importance in Educating the Next Generation". Education Journal of Uzbekistan, No. 2.